



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 8-aprel

261-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi 133-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida

Hududlarda yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish, iste‘molchilarni muqobil energiya resurslaridan foydalanishga o‘tkazish hamda energiya tejovchi texnologiyalarni o‘rnatish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish, aholi ijtimoiy jihatdan og‘ir ahvolda bo‘lgan mahallalarda kichik quvvatli fotoelektr stansiyalarini barpo etish, mikro va kichik gidroelektrstansiyalarni barpo etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 133-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 133-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat shtabi viloyat hokimining 2023-yil 19-iyundagi 277-10-0-Q/23-son qaroriga 1-ilovasi bilan tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin;

Bunda, viloyat shtabi a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritilishi inobatga olinsin.

3. Qaror bilan tuman (shahri) kesimida energiya balansini ishlab chiqish, ularning ko‘rsatkichlarini bajarish, energiyani tejash dasturlari ijrosini ta‘minlash, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tuman (shahar) idoralararo ishchi guruhlarini

(keyingi o‘rinlarda — tuman (shahar) idoralararo ishchi guruh(lari) 1-ilovaga muvofiq namunaviy tarkibda tasdiqlanganligi;

yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy shtablarning (keyingi o‘rinlarda — hududiy shtablar) ustuvor vazifalari 3-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar) idoralararo ishchi guruhlarining ustuvor vazifalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

Bunda, shahar va tuman hokimlari ikki kun muddatda namunaviy tarkib asosida tasdiqlanishi hamda mazkur qarorining 4-ilovasiga asosan tasdiqlangan vazifalar ijrosi so‘siz ta‘minlash bo‘yicha tizimli nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin.

Shuningdek, huddularda topshiriq ijrosini ta‘minlash uchun shahar va tuman hokimlari hamda prokurorlar shaxsan javobgar etib belgilansin.

4. Viloyat boshqarma tashkilotlari birinchi rahbarlari va o‘rinbosarlariga — mazkur davlat organlari, shu jumladan, ularning tuzilmalaridagi tashkilotlar binolarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanishni joriy etish hamda energiya samarador qurilmalarni o‘rnatish ishlarini har oylik manzilli reja asosida amalga oshirib, maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishini qat’iy ta‘minlash bo‘yicha;

tuman va shaharlar hokimlariga — hududlarida elektr energiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilish bo‘yicha har oylik maqsadli reja ko‘rsatkichlarining o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini hamda energiya resurslarini yetkazib berishdagi yo‘qotishlarni kamaytirishni qat’iy ta‘minlashga majburligi va shaxsan javobgarligi haqida;

Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Muxammedov) — korxonalar energoauditdan o‘tkazilishini nazorat qilish, ularning energiya resurslarini iqtisod qilishini tashkil etish bo‘yicha;

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Toshkent hududiy filiali (R.Raupxodjayev) — ulangan quvvati 50 kVA dan yuqori iste‘molchilar elektr uskunalari tejamkor uskunalarga almashtirish, kondensator uskunalari o‘rnatish, elektr tarmoqlarini va transformatorlarni mukammal va joriy ta‘mirlash tadbirlarini amalga oshirish orqali elektr energiyasini iqtisod qilishga erishish bo‘yicha;

“Hududgaz Toshkent” gaz ta‘minoti filiali (J.Muhamedov) — gaz taqsimlash punktlarini demontaj qilib ikki bosqichli gaz ta‘minoti tizimiga o‘tkazish, gaz quvurlari va qurilmalarini ko‘rikdan o‘tkazish va profilaktika qilish, nostandart gaz qurilmalarini tejamkoriga almashtirish, yerosti gaz quvurlari va quduqlarni ko‘rikdan o‘tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish tadbirlarini bajarish orqali tabiiy gazni iqtisod qilishga erishish bo‘yicha;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (J.Anvarov), qurilish nazorati inspeksiyasi (Y.Ikromov), shahar va tuman hokimlarining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va

ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga — binolarni barpo etishda energiyani tejaydigan material va texnologiyalardan keng foydalanish, ayniqsa, yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarning issiqlikni saqlovchi materiallar bilan qoplanishini ta'minlash hamda bu borada qat'iy nazoratni olib borish bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklatilsin hamda bu borada qat'iy choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilsin.

5. Viloyat hokimining o'rinbosari Sh.Mahmudov, viloyat prokuraturasi (A.Mirzayev) bilan birgalikda energiya tejamkorlik va energiya samaradorlikning maqsadli ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash bo'yicha tuman (shahar)lar kesimida har oylik manzilli rejasini tasdiqlash;

shuningdek, har oy yakunida boshqarma va tashkilotlari, shahar va tuman hokimliklari o'z hududlari hamda sohalarda elektr energiyasi va tabiiy gazni iqtisod qilish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar bajarilishi holatini monitoring qilib borsin hamda bu borada mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan rahbarlarga choralar ko'rish bo'yicha takliflar kiritib borsin.

6. Viloyat hokimining barcha o'rinbosarlari majmuasiga kiruvchi viloyat boshqarma va tashkilotlari bo'yicha;

shahar va tuman hokimlari o'z hududlari bo'yicha har chorakda hududdagi muqobil energiya manbalaridan foydalanishni joriy etish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlar Kengashlariga hisobot berib borishini ta'minlasin.

Bunda, **Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (A.Anarov)** hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etib borilishi yuzasidan tizimli nazorat yuklatilsin.

7. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Sh.Nizamudinov), "Toshkent viloyati teleradiokanali" davlat muassasasi (O.Begaliyev), viloyat prokuraturasi va viloyat Adliya boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda muntazam ravishda energetika tizimidagi o'zgarishlar, energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda tejamkor uskunalarning afzalliklarini ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borsin.

8. Mazkur qarorning ijrosi viloyat hokimi o'rinbosari Sh.Mahmudov va viloyat prokurori A.Mirzayev zimmlariga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev